
Flora komponentli frazelogizmlarni tadqiq etish metodlari

Xamidova Tilovatxon Raxmatjonovna

miss_till11@mail.ru

Katta o'qituvchi,

Toshkent davlat agrar universiteti

Annotatsiya *Mazkur maqolada flora komponentli frazeologizmlarni tadqiq etish metodlari va tilshunoslarning bu boradagi fikrlari tahlil qilinadi. Barqaror so'z birikmalarini o'rganishda muayyan bir metodni tanlash bilan bog'liq qiyinchiliklar hamda semantik jihatdan murakkab bo'lgan bunday birliklarni tahlil qilish jarayonida turli lingvistik fan sohalarining faoliyat doiralari o'zaro kesishadi. Bevosita lingvistika sohasi bu boradagi qarashlar ko'rib chiqiladi. Maqola tarjima, adabiyotshunoslik va lingvokulturologiya sohasida fanlararo izlanishlar uchun amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so'zlar *Frazeologiya, frazeologizm, komparativ frazeologik birlik, semasiologik usul, kontekstologik usul, applikatsiya usul, muhit usuli, funktsional tasniflash usuli, identifikatsiya usuli, kompleks yondashuv usuli*

Методы исследования фразеологизмов растительного компонента

Хамидова Тиловатхон Рахматжонова

miss_till11@mail.ru

Старший преподаватель,

Ташкентский государственный аграрный
университет

Аннотация *В данной статье анализируются методы исследования фразеологизмов с флористическим компонентом, а также рассматриваются мнения лингвистов по этому вопросу. Освещаются трудности, связанные с выбором определённого метода при изучении устойчивых словосочетаний, а также подчёркивается, что при анализе таких семантически сложных единиц пересекаются сферы действия различных лингвистических дисциплин. Особое внимание уделяется подходам, характерным для собственно лингвистики. Статья представляет практическую ценность для междисциплинарных исследований в области перевода, литературоведения и лингвокультурологии.*

Ключевые слова *Фраzeология, фразеологизм, компаративная фразеологическая единица, семасиологический метод, контекстологический метод, метод аппликации, метод окружения, метод функциональной классификации, метод идентификации, комплексный подход*

Flora component phraseologisms research methods

Khamidova Tilovatkhan Rahmatjonovna

miss_till11@mail.ru

Senior teacher,

Tashkent state agrarian university

Annotation *This article analyzes the methods used to study phraseological units with a floristic component and examines the views of linguists on this issue. It highlights the challenges associated with selecting a specific method for studying fixed word combinations and emphasizes that the analysis of such semantically complex units involves overlapping areas of various linguistic disciplines. Particular attention is given to approaches characteristic of core linguistics. The article holds practical value for interdisciplinary research in the fields of translation, literary studies, and linguoculturology.*

Key words *Phraseology, phraseological unit, comparative phraseological unit, semasiological method, contextual method, application method, environment method, functional classification method, identification method, integrated approach*

Kirish

Tabiat manzarasi – ob-havo hodisalari, qushlar, hayvonlar va o‘simliklar -qadimdan tilning obrazli tizimida, uning frazeologiyasida o‘z aksini topgan bo‘lib, har bir til, har bir xalqning o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi. Ko‘pgina frazeologik birliklarning asosida o‘simliklar, o‘simlik kelib chiqishiga ega moddalarning nomlari, shuningdek, flora ga oid hayotiy voqeeliklar yotadi. “Mamlakat manzarasi – bu milliy madaniyatning boshqa unsurlari kabi muhim elementi. U xalqning ruhini ifodalaydi”, – deb yozgan D.S. Lixachyov. Turli xalqlarning ayrim frazeologik birliklariga kiruvchi o‘simlik obrazlarida ko‘p o‘xshashliklar mavjud, bu esa ma‘lum bir turmush tarzining, tabiiy sharoitlarning, hamda insonning fiziologik va psixologik xususiyatlari bilan bog‘liq jarayonlarning o‘xshashligi bilan izohlanadi. Biroq har bir xalqning tabiat bilan o‘ziga xos munosabati mavjud. Shunday qilib, har bir tilning frazeologik tarkibi xalqning milliy madaniyati va dunyoqarashining asosiy xususiyatlarini ravshan ifodalaydi.

Tadqiqotning obyekti sifatida nemis va o‘zbek tillarida uchraydigan barcha turdagi floristik (fitofor, o‘simlikka oid) frazeologik birliklar (FB) olingan. Bundan tashqari, ishda floro komponentni o‘z ichiga olgan nemis va o‘zbek tillaridagi komparativ frazeologik birliklarning

(KFB) struktur-semantik xususiyatlari alohida ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, ushbu birliklarning ideografik tavsifi taklif etilgan bo‘lib, uning asosida nemis va o‘zbek tillariga xos milliy dunyoqarash va madaniyatning ayrim jihatlari rekonstruksiya qilinadi va tadqiq etiladi. Bu jihatlarda ushbu tillardagi frazeologik birliklarda mavjud bo‘lgan o‘simlik komponentlari, xususan, ulardagi timsollar va metaforalarning tahlili hamda qiyosiy o‘rganilishi orqali aniqlangan.

Frazeologik tarkibni tilning alohida kichik tizimi sifatida ko‘rib chiqish lozim, frazeologiyani esa tilshunoslik fanining tarkibiy qismi sifatida qarash kerak. Frazeologiya – so‘zning keng ma‘nosida leksikologiyaning bir bo‘limi bo‘lib, o‘ziga xos obyekti, metodikasi va muammolar doirasiga ega. Tilning frazeologiya va tor ma‘nodagi leksikologiya kabi kichik tizimlariga tegishli birliklar o‘zaro chambarchas bog‘liq, chunki frazeologik birliklar leksik birliklar asosida yuzaga keladi, frazeologiya esa o‘z navbatida tilning leksik tarkibini boyitadi. Bundan tashqari, til hodisalari va faktlarining tizimli xarakteri, tadqiqot obyekti asosida, tilning turli mikrosistemalarini ajratib ko‘rsatishga imkon beradi.

Shu tariqa, o‘zining struktur-semantik va funksional xususiyatlari tufayli komparativ frazeologik birliklar (KFB) alohida til mikrosistemi sifatida shakllanadi. Ta’kidlash

joizki, umuman olganda, komparativ frazeologizmlar yetarli darajada o'rganilmagan: uzoq vaqt mobaynida KFB nemis va o'zbek tilshunoslari diqqat markazidan chetda qolgan.

Asosan, bu birliklar frazeologik birliklar (FB) tarkibida umumiy nutqiy klishelar sifatida tilga olingan, xolos. Biroq stilistika bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda ularga ancha ko'proq e'tibor qaratilgan, chunki frazeologik taqqoslashlar tildagi muhim ifoda vositalaridan biri hisoblanadi. Shunday qilib, nemis tilidagi umumiy frazeologik tarkibdan barqaror taqqoslashlarni ajratib ko'rsatish masalasi ilk bor faqat XX asrda hal etilgan bo'lib, bu V. V. Vinogradov, A. V. Kunin, A. G. Nazaryan, I. I. Chernysheva, R. A. Glazyrin, E. G. Rizel, N. Burger, W. Fleischer, K.-D. Pilz, W. Schade, L. Röhrich, W. Mieder va boshqalar kabi tilshunoslarning ilmiy ishlari tufayli amalga oshirilgan. Ular o'z umumiy konsepsiyalarida komparativ frazeologik birliklarga alohida o'rin ajratganlar.

Barqaror taqqoslashlarning strukturaviy, semantik va uslubiy xususiyatlarini alohida tillar doirasida hamda ularning nutqda qanday funksional ishlatilishini o'rganishga bir qator monografik va dissertatsion tadqiqotlar bag'ishlangan. Biroq komparativ frazeologik birliklar (KFB) juda kam hollarda qiyosiy tahlilga tortilgan. Ushbu ilmiy tadqiqotlar, asosan, KFBning ichki strukturasi, semantikasi hamda distribusiv-kontekstual bog'lanishlarini o'rganishga yo'naltirilgan bo'lib, bu barqaror taqqoslashlarning mustahkamligi va ularning komponentlari motivatsiyasini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etgan. Shu bilan birga, bu tadqiqotlarda deyarli tilshunoslik va madaniyatshunoslik (lingvokulturologik) tahlili, shuningdek, ushbu birliklarning ideografik tavsifi va turli tillar doirasida qiyosiy o'rganilishi masalalariga deyarli e'tibor qaratilmagan.

Shu bilan birga, KFB (komparativ frazeologik birliklar) ni turli tillarda qiyosiy tahlil qilish, umuman obrazli tafakkurning umumiy xususiyatlari hamda muayyan jamoa vakillarining

mentalitetiga mos o'ziga xosliklar asosida, tadqiq qilinayotgan tillar strukturasi jihatidan o'xshash va farqli tomonlarini yaqqol aniqlash imkonini beradi (Khamidova, 2024).

Shunday qilib, tadqiqot mavzusi turli tipdagi nemis va o'zbek frazeologizmlarini, xususan, flora komponentlarni o'z ichiga olgan komparativ frazeologik birliklarni (KFB) struktur-semantik, tarixiy-etimologik, etnolingvistik va ideografik jihatlarida qiyosiy tadqiq etishni nazarda tutadi. Bundan tashqari, ishda ushbu frazeologik birliklar tarkibidagi ayrim o'simlik timsollari va metaforalarining kelib chiqishi ham tarixiy, milliy-madaniy, diniy va sof lingvistik omillarni inobatga olgan holda ko'rib chiqiladi.

Tadqiqotning dolzarbligi flora leksikasi va ayniqsa, flora komponentiga ega bo'lgan frazeologizmlarning taqqoslov (komparativ) o'rganilishini zarur etib qo'yadi. Chunki bu birliklar xalqning milliy-madaniy dunyoqarashini ifodalovchi eng yorqin vositalardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, nemis va o'zbek tillaridagi barqaror taqqoslov ifodalarini ideografik jihatdan tavsiflash, shuningdek, ularning tarkibidagi flora komponentlarini qiyosiy tahlil qilish orqali ushbu tillarga xos mentalitetning ayrim o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash va ushbu barqaror iboralarda emotsional-baholovchi ifoda vositalarining yaratilish mexanizmlarini ko'rib chiqish mumkin. Mazkur masalalarni yoritish zaruriyati, shuningdek, frazeologiya, milliy mentalitet va madaniyat o'rtasidagi chuqur bog'liqliklarni tadqiq etishga bo'lgan filologlarning ortib borayotgan qiziqishi bilan ham asoslanadi.

Shu tariqa, qiyosiy tahlil va lingvomadaniy tavsif obyekti sifatida zamonaviy nemis va o'zbek tillaridagi o'z tarkibida o'simlikka oid (flora, fitofor) komponentni – ya'ni xona, bog', maysazor va o'rmonlarda uchraydigan gulli o'simliklar, daraxtlar va butalar, mevalar, o'simlik kelib chiqishiga ega mahsulotlar, moddalar hamda flora olamiga oid ayrim maishiy

hodisalarni ifodalovchi nomlarni – mujassam etgan frazeologizmlar ko'rib chiqiladi.

Metodologiya. Zamonaviy frazeologiya frazeologik birliklarni (FB) tahlil qilishning bir nechta uslublariga ega bo'lib, ularning tanlanishi barqaror so'z birikmalarini o'rganish yo'nalishini va ularni tizimlashtirish usulini belgilaydi. Asosiy usullar qatoriga quyidagilar kiradi:

- semasiologik usul – bunda asosiy mezon frazeologik birliklarning idiomatiklik darajasidir;
- kontekstologik usul – komponentlar o'rtasidagi semantik aloqalar o'rganiladi;
- applikasiya (ustma-ust qo'yish) usuli – bu usul frazeologik bo'lmagan, ammo struktur jihatdan o'xshash so'z birikmalari bilan taqqoslashga asoslanadi;
- muhit usuli – bunda tahlil qilinayotgan obyektning distributiv tahlil bilan bog'liqligiga e'tibor qaratiladi;
- funksional tasniflash usuli – frazeologik birliklarning uslubiy funksiyalari tadqiq qilinadi;
- identifikatsiya usuli, kompleks yondashuv usuli kabilar mavjud.

Bundan tashqari, barqaror so'z birikmalarini tasniflashga doir, bir nechta usullarni uyg'unlashtirish asosida yaratilgan klassifikatsiyalarni alohida ta'kidlash lozim. Bular qatoriga quyidagilar kiradi: leksik-sintaktik tasnif (Городникова, 1967), u frazeologik birliklarning muayyan so'z turkumlariga mos kelishiga asoslangan bo'lib, bunda frazeologizmlarning leksik-grammatik ma'nosi va sintaktik funksiyasining mosligi hisobga olingan; semantik-sintaktik tasnif (Fleischer, 198); struktur-semantik tasniflar, bu yondashuvlar avvalgi metodlarning asosiy prinsiplarini sintez qilib, frazeologik birliklarning ham strukturasi, ham semantikasini bir vaqtda hisobga oladi.

Alohida e'tiborga loyiq bo'lgan asarlardan biri bu — K.D. Piltssning monografiyasi bo'lib, unda XIX–XX asrlarda turli yevropa, amerika va rus lingvistik maktablari vakillari tomonidan

ishlab chiqilgan frazeologik birliklarni tadqiq qilish metodikalarining tizimli va batafsil qiyosiy tahlili berilgan (Pilz, 1978).

Barqaror so'z birikmalarini o'rganishda muayyan bir metodni tanlash bilan bog'liq qiyinchiliklar haqida gapirganda, shuni alohida ta'kidlash lozimki, semantik jihatdan murakkab bo'lgan bunday birliklarni tahlil qilish jarayonida turli lingvistik fan sohalarining faoliyat doiralari o'zaro kesishadi:

Bevosita lingvistika sohasi – bu yo'nalishda quyidagi masalalar ko'rib chiqiladi: frazeologik birliklarning strukturaviy modeli, tarkibi va tasnifi, ularning komponentlari ma'nosi, sinonimlik, variantlilik va boshqa shu kabi muammolar; etnolingvistika sohasi – aksariyat frazeologik birliklarning o'ziga xosligi tahlil qilinayotgan til egasi bo'lgan xalqning yashash sharoitlari, urf-odatlari va axloqiy qadriyatlarini bilan bevosita bog'liq ekanligini hisobga olish zarur; psixolingvistika sohasi – bu yerda Sh. Ballining ta'kidlashicha, har qanday nutq ifodasi mantiqan, psixologik jihatdan va lingvistik jihatdan shartlangan bo'ladi (Балли, 1955).

Ushbu o'zaro bog'liqlikni hisobga olgan holda quyidagi masalalar ko'rib chiqiladi: barqaror so'z birikmasi nutq ifodasining birligi sifatida, frazeologik birlik va uning qismlarining mantiqiy-lingvistik funksiyasi, taqqoslovchi frazeologizmlarni tahlil qilishda "taqqoslash amali" tushunchasi va boshqalar (Горелов, 1997); areal lingvistika sohasi – bu sohaning asosiy objekti taqqoslanayotgan tillarda mos barqaror so'z birikmalarining mavjudligi yoki mavjud emasligini aniqlashdan iborat (mazkur tadqiqotda: zamonaviy nemis adabiy tili va zamonaviy o'zbek adabiy tili hamda uning hududiy va milliy variantlari). Shuningdek, bu yerda o'zlashmalar va kalkalash muammolari ham ko'rib chiqiladi.

Tahlil va natijalar

Frazeologizmlarni lingvistik tahlil qilishning tarkibiy qismlari ro'yxati ularning o'zaro bog'liqligi turlicha shakllarda amalga oshirilishini

ko'rsatadi. Masalan, ayrim masalalar tadqiqotlar davomida bevosita ifodasini topadi (masalan, sof lingvistika, areal lingvistika), boshqalari esa bevosita o'rganilayotgan birliklarning o'zida mujassam bo'ladi (masalan, etnolingvistika, psixolingvistika).

Shuni ta'kidlash zarurki, yuqorida sanab o'tilgan metodlar ichki til tahlili doirasida qo'llaniladi. Chunki har xil tillardagi komparativ frazeologik birliklarni (KFE) qiyosiy o'rganishga kirishishdan avval, har bir til doirasida ushbu birliklarning inventarizatsiyasi (ya'ni ro'yxatga olinishi va tasnifi) amalga oshiriladi.

Barqaror so'z birikmalarini bir nechta tillar (yoki til variantlari) doirasida o'rganish metodlari muammolari esa zamonaviy lingvistikaning yangi yo'nalishlaridan biri – qiyosiy frazeologiya doirasida o'rganiladi. Shubhasiz, taqqoslash ilmiy tadqiqotning zarur va umumiy e'tirof etilgan metodik tamoyillaridan biridir – ko'plab fanlar taqqoslashni metod sifatida qo'llaydi va ayniqsa, tilshunoslik bu yo'lda, avvalo, til haqidagi nazariy tushunchalarning rivojlanishi borasida katta yutuqlarga erishgan. Tillarni ularning barcha jihatlarini bilan o'rganish taqqoslashsiz va bu taqqoslash natijalarini ichki til (intralingvistik) hamda til tashqarisidagi (ekstralingvistik) nuqtayi nazardan tahlil qilmasdan iloji yo'q.

Ammo agar qiyosiy tilshunoslik fonetika va morfologiya darajasida mustaqil yo'nalishlar – komparativistika, areal tilshunoslik, konfrontativ lingvistika, tipologiyani ancha ilgari ishlab chiqqan bo'lsa, frazeologiyani qiyosiy tadqiqotlari hali endigina ushbu umumiy tan olingan yo'nalishlar bo'yicha shakllanib bormoqda.

Shunday qilib, bir nechta tillarda barqaror so'z birikmalarini parallel tahlil qilish chog'ida qiyosiy tilshunoslikning quyidagi yo'nalishlari bilan bevosita aloqador sohalar muqarrar ravishda qamrab olinadi:

1. Frazeologik komparativistika – qarindosh tillardagi frazeologik birliklarni genetik-diagonik jihatdan tahlil qilishga

yo'naltirilgan ilmiy yo'nalish bo'lib, masalan, umumturkiy yoki umumgerman frazeologiyasi qatlamlarini ajratib ko'rsatish imkonini beradi;

2. Frazeologiyani areal yondashuv asosida o'rganish juda samarali yondashuv hisoblanadi, chunki frazeologizmlar – tilning ikkilamchi darajadagi obrazli birliklari sifatida – qarama-qarshi (ya'ni solishtirilayotgan) tillar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri nomlovchi leksemalarga, so'z yasovchi yoki grammatik birlik hamda kategoriyalarga qaraganda ancha oson o'zlashtiriladi. Shu boisdan, frazeologiya – tilning eng harakatchan va dinamik kichik tizimi sifatida – turli tillar, folklorlar va xalqlar adabiyotlari o'rtasidagi o'zaro ta'sirning yorqin dalillarini ifodalab berishi kerak. Shu sababli, frazeologiya tilning eng harakatchan, dinamik qisqisistemesi sifatida turli tillar, folklorlar va adabiyotlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni aniq aks ettiruvchi yorqin dalillarni taqdim etishi kerak;
3. Konfrontativ frazeologiya – muayyan frazeologik birliklarni o'zaro qiyoslash, ularni tarjima qilish hamda o'qitish amaliyotida qo'llash maqsadida tahlil qiluvchi yo'nalish bo'lib, frazeologik birliklarning ekvivalentlik turlarini aniqlash bilan ham shug'ullanadi;
4. Kontrastiv frazeologiya – bu konfrontativ tilshunoslikning bir bo'limi bo'lib, u tillar orasidagi kontrastlar va farqlarni o'rganishga ixtisoslashgan hamda, avvalo, to'liq ekvivalenti mavjud bo'lmagan frazeologik birliklarni (FB) ko'rib chiqadi. Ushbu yo'nalish, birinchi navbatda, leksikografik masalalarni, ya'ni o'rganilayotgan til frazeologizmlaridagi turli qiyinchiliklarni chuqur yoritib berishga qaratilgan o'quv frazeologik lug'atlarini boyitish muammolarini hal qilishga qaratilgan.

5. Tarjima nazariyasi: frazeologizmlarni boshqa tilga frazeologizm shaklida tarjima qilish ba'zida to'liq ekvivalenti mavjud bo'lsa-da, imkonsiz bo'lib qoladi. Bunday qiyinchilik ko'plab barqaror so'z birikmalarida kuchli milliy-madaniy ma'nodagi elementlarning mavjudligi bilan izohlanadi (ya'ni, "milliy-madaniy konnotatsiya"). Shu sababli, tarjima nazariyasi qanday hollarda frazeologik tarjima zarur yoki maqsadga muvofiq, va qanday hollarda esa – nomaqbul ekanini belgilaydi.

Qator hollarda, masalan, manba matnda mavjud bo'lmagan frazeologik birliklarni tarjimada kiritish orqali asarning umumiy frazeologik darajasini saqlab qolish mumkin. Bunday yondashuv "kompensatsiya" deb ataladi

(Добровольский, 1990) Ba'zi vaziyatlarda esa, frazeologizmlarni to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish ham mumkin, hattoki ularning ekvivalenti mavjud bo'lsa ham, chunki bu usul asarga mos milliy koloritni baxsh etadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, barqaror so'z birikmalarining tarjima muammosi bevosita milliy turmush tarzi, madaniyat va tarix xususiyatlarini bilish bilan chambarchas bog'liqdir.

Aynan shu sababli, nemis va o'zbek tillaridagi floristik idiomalarni (KFB va boshqa frazeologik birliklarni) struktur-semantik hamda tarixiy-etimologik tahlil qilishga kirishishdan avval, ushbu til birliklarini o'rganishning ayrim etnolingvistik va lingvomadaniy jihatlarini ko'rib chiqish zarur bo'ladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Cernyseva, L. I. (1980a). *Feste Wortkomplexe des Deutschen in Sprache und Rede*. Moskau.
2. Fleischer, W. (1982). *Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache* (2. Aufl.). Leipzig.
3. Fleischer, W. (1997). *Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache* (2., durchgesehene und ergänzte Auflage). Tübingen.
4. Khamidov, M. M. (2021). Some comments on the issue of the term and terminology. *European Journal of Agricultural and Rural Education*, 2(5), [page numbers if available].
5. Pilz, K.-D. (1978). *Phraseologie: Versuch einer interdisziplinären Abgrenzung, Begriffsbestimmung und Systematisierung unter besonderer Berücksichtigung der deutschen Gegenwartssprache* (2 Bde.). Göppingen.
6. Schippan, Th. (1975). *Einführung in die Semasiologie* (2. Aufl.). Leipzig.
7. Xamidova, T. R. (2023). Chet tillarda mutaxassislikka oid matnlarning terminologik jihati. *Xorazm Ma'mun Akademiyasi Axborotnomasi*, 4, [page numbers if available].
8. Абдуллаева, Ф. С., Файзуллаева, Ш. М., & Хуррамова, А. Х. (2024). Эффективное использование возможностей передовых зарубежных образовательных технологий в обучении математике. *Science and innovation*, 3(Special Issue 19), 838-841.
9. Балли, Ш. (1955). *Общая лингвистика и вопросы французского языкознания*. Москва.
10. Горелов, К. Н., & Седов, К. Ф. (1997). *Основы психолингвистики*. Москва.
11. Городникова, М. Д., & Розен, Е. В. (1967). *Лексикология современного немецкого языка*. Москва.
12. Гумбольдт, В. фон. (1984). О различии строения человеческих языков и его влиянии на духовное развитие человеческого рода. В *Избранные труды по языкознанию* (с. 68–91). Москва.

13. Добровольский, Д. О., Малыгин, В.Т., & Коканина, Л. Б. (1990). *Сопоставительная фразеология (на материале германских языков). Курс лекций*. Москва.
14. Неведомская, О. М. (1973). *Компаративные фразеологизмы немецкого языка в сопоставлении с русскими* (Автореферат дисс. ... канд. филол. наук). Ленинград.